

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI MOLIYAVIY RISKLARNI BARTARAF ETISH

Abduvasiyeva Marjona Anvarovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyoti Universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy texnologiyalar va moliyaviy risklar bo'yicha ma'lumotlar va moliyaviy texnologiyalar orqali moliyaviy risklarni bartaraf etish yo'llari va tavsiyalari tahlillari keltirib o'tilgan. Moliyaviy risklar bo'yicha ayrim olimlarning fikri va ularning tadqiqotlari, o'zgarishlari keltirilgan va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy risklar, Fintech, Blokcheyn, Spetsifikatsiya Diversifikatsiya,, Sug'urta, Ichki nazorat va audit.

УСТРАНЕНИЕ ФИНАНСОВЫХ РИСКОВ С ПОМОЩЬЮ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Абдувасиева Маржона Анваровна

*Ташкентский государственный экономический университет Магистрант 1
курса*

Аннотация: В этой статье приведены данные о финансовых технологиях и финансовых рисках и анализ путей и рекомендаций по устранению финансовых рисков с помощью финансовых технологий. Приведены мнения некоторых ученых по финансовым рискам и их исследованиям, изменениям и выводам.

Ключевые слова: Финансовые риски, Финтех, Блокчейн, Спецификация Диверсификация, Страхование, Внутренний контроль и аудит.

FINANCIAL RISK ELIMINATION THROUGH FINANCIAL TECHNOLOGIES

Abduvasiyeva Marjona Anvarovna

Tashkent State University of Economics Master 1st year student

Abstract: This article provides information on financial technologies and financial risks, as well as an analysis of ways and recommendations to mitigate financial risks through financial technologies. The opinions of some scholars on financial risks and their research, changes, and conclusions are presented.

Keywords: Financial risks, FinTech, Blockchain, Specifications, Diversification, Insurance, Internal Control, and Audit.

KIRISH

So'nggi yillarda jadal bilan butun jahonda raqamli texnologiyalar rivojlanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi esa raqamli iqtisodiyot rivoji uchun ulkan hissa

qo'shmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli ko'pgina mamlakatlarning moliya va pul tizimi o'zgarib boshladi. Masalan, naqd to'lovlardan naqd pulsiz onlayn to'lovlarga faol o'tish; banklar yoki mikromoliya tashkilotlari tomonidan berilgan kreditlardan onlayn platformalar orqali boshqa jismoniy shaxslardan qarz olishga qadar. Moliyaviy texnologiyalarining rivojlanishi moliyaviy bozorlarda paydo bo'ladigan turli moliyaviy risklarni bartaraf etish uchun qo'l kelmoqda. Bozor iqtisodiyotida moliyalashtirish manbalarining ishonchliligi, xavfsizligi, riskliligi, daromaddorligi, likvidligi, aniq maqsadlari va ularga erishish usullari o'rtasida chambarchas aloqadorlik bor. Ko'zlangan samaraga xavfsizlik, daromaddorlik, kapital o'sishi va investitsiyalar likvidligi oqilona qo'shilganda investitsiya maqsadlarini kelishtirish, murosaga keltirish orqali erishiladi. Moliyaviy texnologiyalar orqali moliyaviy risklarni boshqarishning dolzarbligi, moliyaviy tizimlarni ko'paytirish va moliyaviy axborotlar bilan ishlashning ishonchliligini ta'minlashni talab qiladi.

"Risk" so'zi Yevropaning ko'p tillarida mavjud. Misol uchun greklarda ridsikon so'zi mavjud bo'lib, u qoya, cho'qqi ma'nosini bildiradi. Italiyaliklar tilida risiko so'zi xatar, tahdid ma'nosini, risicare so'zi qoyadan mohirona o'tish ma'nosini bildiradi. Fransuzlardagi risdoe so'zi taxdid, qoyani aylanib o'tmoq ma'nosini beradi. P.G. Grabova risk tushunchasini ilmiy jihatdan tadqiq qilgan olimlardan biri bo'lib, riskni daromadlarning, resurslarning bir qismini yo'qotish xavfi sifatida talqin qiladi¹. Bizning fikrimizcha, hayotimiz davomida risk va tavakkal so'zlaridan sinonim so'zlar sifatida foydalanamiz. Biroq, bu ikki tushuncha bir-biridan farqli ma'nolarga egadir. Misol uchun, O'zbek tilining izohli lug'atida "Tavakkal (arabcha) - vakolat olish, umid bog'lash, suyanish ma'nolarini anglatib, oqibat natija qanday bo'lishidan qay'iy nazar, biror ishga jazm qilish, nima bo'lsa bo'lar yoki ostidan yoki ustudan zaylida qilingan harakatdir. Bundan tushunishimiz mumkin, tavakkalchilik biror ish harakat natijasi kutulgan bo'lishiga umidvorlik ma'nosini bildiradi yoki buning aksi ham bo'lishi mumkin.

Moliyaviy risklar deganda moliyaviy resurslarni, ya'ni pul shaklidagi resurslarni yo'qotish xavfi tushuniladi. Iqtisodiy adabiyotlarda risk tushunchasining talqini bo'yicha munozarali fikr va mulohazalar mavjud emas. Ammo moliyaviy risklarning tarkibi xususida iqtisodchi olimlar o'rtasida jidid munozaralar mavjud. Masalan, V.Moskvin moliyaviy risklarning tarkibiga inflyatsion riskni, deflyatsion riskni, valyuta riskini va likvidlik riskini kiritadi². Boshqa bir taniqli iqtisodchi olim I. Balabanova moliyaviy risklarning tarkibiga quyidagilarni kiritadi³. Shuningdek, risk tushunchasi bir qancha sinonimlarga ega. Misol uchun, tavakkalchilik, ehtimollik, ehtiyotkorlik, mavhumlik, noaniqlik, omadlilik, chalkashlik, xavf-xatar, yo'qotish, yutish, nizoli vaziyat ma'nolarida ifodalashimiz mumkin.

Moliyaviy risklarni moliyaviy texnologiyalar orqali bartaraf etish iqtisodiy o'sish va barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi mustahkam, samarali va inklyuziv moliyaviy tizimni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) moliyaviy dunyoning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylandi. Blokcheyn va sun'iy intellekt kabi yangi texnologiyalarning rivojlanishi bilan moliya sektori o'z faoliyatini yaxshilash va

¹ Грабова П.Г. Риск в современном бизнесе.-Москва:Аланс, 1994.- с. 58.

² В.А.Москвин. Управление рисками при реализации инвестиционных проектов.-М.:ФИС, 2004.-с.69

³ И.Т.Балабанова. Риск-менеджмент.-М.:Дело, 1996.-с.с. 22-27.

samaradorlikni oshirish uchun yangi imkoniyatlarga ega bo'lmog'da. Ushbu maqolada biz moliya sohasida qanday yangi texnologiyalar qo'llanilayotgani va moliyaviy risklarni bartaraf etishga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Moliyaviy texnologiyalar to'g'risida ko'plab olimlar kitoblar, maqolalar yozishgan, ilmiy ishlar qilishgan.

Roy S.Freedman o'zining "Moliyaviy texnologiyalarga kirish" nomli kitobida tizimlar qanday ishlashini - ular qanday paydo bo'lganini va qanday rivojlanganligini texnologik nuqtai nazardan tushuntirib bergan. Moliyaviy modellar ortidagi mantiqiy asosni ko'rsatish uchun moliyaviy formulalar, baholar va munosabatlarni sodda va tez olish uchun kompyuter algebra tizimlari texnologiyasidan foydalanilgan. Ko'pgina moliyaviy hisob-kitoblar va ma'lumotlar taqdimotini amalga oshiradigan dasturlar C, C++, Java, Visual Basic, MuPAD kompyuter algebra tizimi va AMPL modeli spetsifikatsiyasi tilida, shuningdek, turli XML dialektlarida ko'rsatilgan⁴. Zamonaviy ma'noda risk so'zi ikki xil ma'noga ega: y xavf ehtimoli va bir vaqtning o'zida uning potentsial natijasini anglatishi mumkin. Birinchi ta'rif risk manbasiga urg'u beradi, ikkinchisi esa tavakkal bo'lgan maqsadga qaratilgan. Xavf va tavakkal tushunchalari riskga xosdir.

Jiyanova N. o'zining ilmiy ishlarida iste'molchilarga taklif eta oladigan moliyaviy xizmatlar sanoatining nisbatan yosh, ammo tez rivojlanayotgan sohasi arzon narxlarda turli xil moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, aholining ilgari kredit, bank va tegishli xizmatlardan foydalana olmagan qatlamlariga xizmatlar taklif qilish, moliyaviy xizmatlarning yangi turlarini yaratish, moliya bozorlarida bozor samaradorligini oshirish kerakligi haqida ta'kidlab o'tgan⁵. Risk atamasi to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lgandan so'ng shunday xulosaga kelish mumkinki, inson risqini topishi uchun doimiy harakatda bo'ladi, qaysidir faoliyat turi bilan shug'ullanadi, chunki inson ehtiyojlari cheksizlikka intilgan sari uni qondirishga manba bo'lgan resurslar cheklanaveradi. Natijada taqchillik vujudga kelib raqobatning turli ko'rinishi namoyon bo'la boshlaydi.

"Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar" darsligida moliyaviy texnologiya - bu moliyaviy muammolarni hal qilish yo'llarini o'ylab topish jarayonidir deb ta'rif berilgan. Umuman olganda, o'z faoliyatidagi boshqa barcha muammolar korxonalarining moliyaviy muammolarida o'z ifodasini topadi. Moliyaviy texnologiyalar moliyaviy xizmatlar va texnologiya sektorlari chorrahasida joylashgan dinamik segmentdir. Unda texnologik startaplar va bozorning yangi ishtirokchilari hozirda an'anaviy moliyaviy xizmatlar sektori tomonidan taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlarga innovatsion yondashuvlarni qo'llashadi. Moliyaviy texnologiyalar segmenti tez rivojlanib, an'anaviy qiymat zanjiridagi narsalarning odatiy tartibini buzadi⁶.

Yuqoridagi olimlarning olib brogan tadqiqotlar asosan moliyaviy texnologiyalarning nazariy va uslubiy masalalariga qaratilgan bo'lib, ularda moliyaviy texnologiyalar samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Ammo bu tadqiqotlarda moliyaviy

⁴ 2 Roy S.Freedman Introduction to financial technology 2006

⁵ Жиянова Н. Финансовые технологии и их влияние на финансовые рыски //Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 10. – №. 3. – С. 9-17.

⁶ S.Elmirzayev, N.Shavkatov, N.Sherkuziyeva, A.Karimov, D.Abduraximova, S.Omonov Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar: Darslik - T.: « DIADEMA NUR SERVIS » OOO. – 412 b. 2023-yil

texnologiyalarni takomillashtirish yo'llari va ular orqali moliyaviy risklarni bartaraf etish bilan bog'liq real amaliy masalalar batafsil ko'rib chiqilmagan.

Tahlil va natijalar. Moliyaviy risklar - moliyaviy faoliyatni amalga oshirish shartlari noaniq bo'lgan vaziyatda daromad va kapitalni yo'qotish shaklida salbiy moliyaviy oqibatlarining yuzaga kelish ehtimoli. Tadbirkorlik faoliyati va biznesda risk boshqaruv nazariyasi hamda amaliyotining muhim tarkibiy qismi sifatida, ayniqsa, ushbu eng jiddiy muammoning kam o'rganilganligini hisobga olsak, tamomila mustaqil nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Moliyaviy risk deganda moliyaviy bitimlarni amalga oshirish (bankka mablag'larni qo'yish, aksiyalar muomalasi, birja faoliyati va hokazo) chog'ida vujudga keladigan risklar tushuniladi⁷. Risklarni oqilona boshqarish mumkin, ya'ni ma'lum darajada xavfli hodisaning sodir bo'lishini bashorat qilish va xavf darajasiga qarab chora ko'rish imkonini beradigan turli xil choralarni qo'llash.



1-rasm. Moliya risklarning tasniflanishi⁸


Fintech yoki moliyaviy texnologiya bizning moliyaviy operatsiyalar va xizmatlarni boshqarish uslubimizda inqilob qildi. Biroq, har qanday boshqa soha singari, fintech ham o'ziga xos qiyinchiliklar va muammolarga duch keladi. Moliyaviy texnologiyalarning asosiy maqsadi:

- Moliyaviy xizmatlarning mavjudligi, sifati va turlarini oshirish.
- Moliyaviy sektordagi risklar va xarajatlarni, shuningdek, iste'molchilar uchun xizmatlar narxini kamaytirish.
- Moliya bozorida raqobatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash.
- Bank jarayonlarining xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash⁹.

⁷ Moliyaviy risklar nazariyasi: O'quv qo'llanma / Sh.Q.Fozilchayev, N.G.,Xidirov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 240 b.

⁸ Moliyaviy risklar nazariyasi: O'quv qo'llanma / Sh.Q.Fozilchayev, N.G.,Xidirov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 240 b.

⁹ <https://trends.rbc.ru/trends/industry/618b6f349a794772fa50adf4?from=copy>



2-rasm. Riskning asosiy xususiyatlari

Qarama-qarshiliklar quyidagilarda namoyon bo'ladi: risk bir tomonlama muhim iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-axloqiy natijalarga olib keladi, ya'ni ijtimoiy, texnik rivojlanishni tezlashtiradi, jamiyatning fikr va ma'naviy muhitiga ijobiy ta'sir qiladi. Ikkinchi tomonlama esa, aksincha ta'sir qilishi mumkin, ya'ni risk ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishga to'sqinlik qilishi mumkin. Alternativlik, bu bir yoki bir qancha ko'rinishdagi qarorlarni tezlik bilan tanlashda namoyon bo'ladi. Tanlash lozim bo'lmagan joyda riskli jarayonlar ham vujudga kelmaydi va risk bo'lmaydi. Riskning asosiy xususiyatlari Qarama-qarshilik, Noaniqlik, Alternativlik, Noaniqlilik, bu albatta noaniq, ya'ni kutilmagan holatlar bilan bog'liq. Uning yuzaga kelish va tus olish shakli noaniq bo'lib qolaveradi.

Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) moliyaviy sohasida innovatsion yechimlarni taklif etadi va moliyaviy xizmatlarni osonlashtiradi. Bu texnologiyalar orqali moliyaviy tizimlar boyicha xizmatlarni yaxshilaydi, texnikaviy texnologiyalar va ma'lumotlar analitikasi yordamida moliyaviy jarayonlarni boshqarish imkoniyatini oshiradi va moliyaviy sohani rivojlantiradi.



3-rasm. 2023-yilda global miqyosda 5ta risk turlarini ta'siri.¹⁰

Ushbu rasmda biz risklarni 2023-yilda global tomonlama ta'siri haqida keltirilgan ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Bu risklarga asosan, iqtisodiy, ekologik, geosiyosiy, ijtimoiy, texnologik risklar keltirib o'tilgan.

Ko'plab xavflar Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi bilan kuchaymoqda. Bu rasmda energiya ta'minoti inqirozi, yashash narxi inqirozi, muhim infratuzilmaga kiberhujumlar, o'sib borayotgan inflyatsiya, respondentlarning ulushi, global ta'minot zanjiridagi uzilish (nooziq-ovqat tovarlari), oziq-ovqat ta'minoti inqirozlarida risklarning yuqori, kamroq va ko'proq ta'sirlarini ko'rishimiz mumkin.

Moliyaviy risklar va ularni boshqarish juda murakkab jarayon bo'lib, ularni tahlil qilish uchun ko'plab turli vositalar va yondashuvlar mavjud. Grafiklar yordamida risklarning ta'sirini va ehtimolligini, boshqarish usullarining samaradorligini, hamda ular kompaniya faoliyatiga qanday ta'sir qilishini yaxshiroq tushunish mumkin. Har bir kompaniya o'ziga xos risklarni aniqlab, ularni boshqarish uchun optimal strategiyani tanlashi kerak.

Xulosa va takliflar. Moliya sohasida texnologiyalardan foydalanish orqali risklarni kamaytirish uchun avvalo avtomatlashtirilgan tahlil, sun'iy intellekt yordamida oldindan bashorat qilish va blokcheyn texnologiyasi kabi vositalardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tizimlar xavfsizligini ta'minlash va kiber hujumlarga qarshi kurashish uchun doimiy monitoringni kuchaytirish kerak. Xulosa qilib aytganda, texnologiyalardan to'liq samarali foydalanish uchun xavf-xatarlarni aniqlash va ularga tezkor javob berish muhim. Innovatsion texnologiyalarni birlashtirib, moliyaviy risklarni maksimal darajada boshqarish strategiyasini ishlab chiqish.

Moliya texnologiyalari (fintech) orqali moliyaviy risklarni bartaraf etish uchun bir qator samarali takliflarni ishlab chiqish mumkin. Quyida bu borada bir nechta asosiy takliflar keltirilgan:

1. Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili (AI va Big Data) yordamida risklarni prognoz qilish. Sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarini qo'llash orqali moliyaviy risklarni oldindan prognoz qilish va identifikatsiya qilish tizimlarini yaratish. AI yordamida moliyaviy bozorlarni tahlil qilib, imkoniyatlar va xavflarni oldindan aniqlash mumkin. Bu tizimlar qaysi operatsiyalar yuqori riskli ekanligini aniqlashga yordam beradi va tashkilotlarga o'z faoliyatini mos ravishda sozlash imkonini beradi.

2. Blokcheyn texnologiyasidan foydalanish. Blokcheyn texnologiyasi orqali moliyaviy operatsiyalarni yaxshilash, ularni shaffof qilish va xavfsizligini ta'minlash. Blokcheyn yordamida tranzaksiyalarni real vaqtda monitoring qilish va noto'g'ri ma'lumotlar bilan ishlashni oldini olish mumkin. Bu texnologiya, shuningdek, firibgarlik va soxtalashtirishlarni kamaytiradi, chunki har bir operatsiya taqdim etilgan zanjirda o'zgartirilmas va izlanishi mumkin bo'ladi.

3. Avtomatlashtirilgan tizimlar va smart-kontraktlar.

Smart-kontraktlar va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida moliyaviy shartnomalarni bajarishni yanada samarali va xavfsiz qilish. Smart-kontraktlar blokcheyn

¹⁰ <https://www.valuewalk.com/wp-content/uploads/2023/01/Biggest-Global-Risks-of-2023.jpg>

asosida ishlaydi va ikki tomonlama kelishuvni avtomatik tarzda bajaradi, bu esa inson faktori va xatoliklar xavfini kamaytiradi.

4. Kiberxavfsizlikni kuchaytirish. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarda kiberxavfsizlikni mustahkamlash. Bu, moliyaviy operatsiyalarga kirish imkoniyatlarini faqat muayyan shaxslar yoki tizimlarga cheklashni o'z ichiga oladi. Kiberxavfsizlikka oid ilg'or texnologiyalarni joriy etish, masalan, biometrik autentifikatsiya, shifrlash usullari va xavfsiz tarmoq tizimlari orqali ma'lumotlarni himoya qilish.

5. Real-vaqt tizimlarida moliyaviy monitoring. Moliyaviy bozorlarni real vaqt rejimida monitoring qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash. Bu orqali moliyaviy operatsiyalarni va operativ xatoliklarni tezkor aniqlash, o'zgaruvchan bozor sharoitlariga tezda moslash imkoniyatini yaratadi. Masalan, foydalanuvchilarga real vaqtda risklarni kuzatib borishga yordam beradigan tizimlar ishlab chiqish.

7. Moliya innovatsiyalari va yangi texnologiyalarni rivojlantirishga sarmoya kiritish. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyalar va davlatlar innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va ularga sarmoya kiritish orqali yangi imkoniyatlarni yaratishlari lozim. Bu yangi texnologiyalar moliyaviy tizimlarni yanada xavfsiz va ishonchli qilishga yordam beradi, shuningdek, yangi risklarni bartaraf etish imkonini beradi.

8. Regulyatorlar va standartlashtirishni kuchaytirish. Moliyaviy texnologiyalarni boshqarish uchun global va mahalliy regulyatorlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, moliyaviy xizmatlarning xavfsizligini ta'minlovchi global standartlarni joriy etish. Bu, o'z navbatida, firmalar va foydalanuvchilarning ishonchni oshiradi, hamda texnologiyalarning etishmovchiliklaridan kelib chiqadigan risklarni kamaytiradi.

Moliya texnologiyalari yordamida moliyaviy risklarni bartaraf etish ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Sun'iy intellekt, blokcheyn, avtomatlashtirilgan tizimlar va kiberxavfsizlik kabi texnologiyalarni birlashtirib, moliyaviy risklarni aniqlash, oldini olish va boshqarish uchun yangi, samarali strategiyalarni ishlab chiqish mumkin. Bu esa nafaqat kompaniyalar uchun, balki butun moliyaviy ekotizim uchun barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.06.2021 yildagi 373-sonli qaror
2. Roy S.Freedman Introduction to financial technology 2006.
3. Fintech: sanoatning qisqacha tarixi (19.11.2019) [Elektron resurs]. URL: <https://frankrg.com/8732> (kirish sanasi: 07/12/2021, bepul)
4. Puschmann T., Hoffmann C. H., Khmarskiy V. (2020). How green fintech can alleviate the impact of climate change—The case of Switzerland Sustainability. (12(24)). 1–28. doi: 10.3390/su122410691.
5. Ештокин С.В. Российский финтех в национальной финансовой системе: защитник интересов или скрытая угроза? // Экономика, предпринимательство и право. 2021. – Том 11. – № 8. – С. 1915-1944. – doi: 10.18334/epp.11.8.112709.

6. Жиянова Н. ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВЫЕ РЫНКИ //Economics and Innovative Technologies. – 2022.
7. S.Elmirzayev,N.Shavkatov, N.Sherkuziyeva, A.Karimov, D.Abduraximova, S.Omonov.
8. Moliyaviy risklar nazariyasi: O'quv qo'llanma Sh.Q.Fozilchayev, N.G.Xidirov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 240 b.
9. Абчук В.А. Теория риска. Л "Судоостроение", 1983., Гранатуров В.М. Экономический риск: сущность, методы измерения, пути снижения. – М.: "Дело и сервис", 1999.,
10. Дубров А.М., Лагоша Б.А., Хрусталеv Е.Ю. Моделирование рисковvх ситуаций в экономике и бизнесе. – М.: "Финансы и статистика", 1999.
11. Phillippon, T. (2019). On Fintech and Financial Inclusion. Working paper. National Bureau of Economic Research.
12. <https://trends.rbc.ru/trends/industry/618b6f349a794772fa50adf4?from=cop>